



BOBUR – HARBIY SARKARDA, TADBIRKOR, ADOLATLI VA SAXOVATLI HUKMDOR

Muallif: Olimov Muhammadqosim Hoshimovich ¹

Affiliyatsiya: O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyati kengashi raisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20195749>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Boburning lashkarboshi sifatida ishtirok etgan janglari, qo‘shin tuzilishi, harbiy san‘ati to‘g‘risida tafsilotlar berilgan bo‘lib, ular orqali Temuriylar davri harbiy san‘atiga daxldor ko‘plab ma‘lumotlar bilan tanishish mumkin. Maqolada Boburning Farg‘ona, Samarqand, Kobul saltanatidagi hukmronligi, Hindistonni zabt etish yuzasidan amalga oshirgan harakatlari yoritib berilgan.

Bobur Hindistonni qo‘lga kiritganidan so‘ng, juda katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi, ariq - kanallar qazdirdi, bog‘ - rog‘lar bunyod etdi, muhtasham imoratlar tikladi.

Bobur mirzo tabiatan adolatli va saxovatpesha inson bo‘lgan, uni saltanat barpo etishdan asosiy maqsadi xalq xizmati, ezgu - amallarni ado etish, islom dini qadriyatlarini avaylab - asrash, adolatni o‘rnatish va xayr - saxovatni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan.

Bobur mamlakat kuch - qudratini mustahkamlashda ishtirok etgan saroy a‘yonlari va beklari, lashkar va navkarlari, qurilish va obodonchilik ishlarida band bo‘lganlarni mehnat va ranjini inobatga olib, ularga hadya, in‘om va sovg‘alar berib borgan, bu ulug‘ hukmdorning bag‘rikengligi va saxovatidan dalolat edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Bobur mirzo yirik davlat arbobi, salohiyatli lashkarboshi, saxovatli va adolatli hukmdor sifatida nom qoldirgan shaxs sanaladi.

Kalit so‘zlar: hukmdor, harbiy mahorat, lashkarboshi, jang san‘ati, saltanat, adolat, saxovat, mehr - oqibat, tadbirkorlik, avlodlarga munosib bo‘lish.

“Boburnoma” asarida Boburning lashkarboshi sifatida ishtirok etgan janglari, qo‘shin tuzilishi, harbiy san‘ati, qo‘shinni qurollantirish va boshqarish tartiblari to‘g‘risida juda boy tafsilotlar berilgan. Bobur butun umrini jangu - jadallarda o‘tkazishiga to‘g‘ri kelgani boisidan uni ot ustida saltanat tebratgan hukmdor deb e‘tirof etish to‘g‘riroq bo‘lur edi.

“Boburnoma”da lashkarboshi sifatida o‘zi qatnashgan jangu - jadallari, qo‘shin tuzilishi, urush olib borish san‘ati, qamal holatlari, qurol - yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda ko‘plab harbiy ma‘muriy istilohlar (tuman, ulus, ko‘kaltosh, eshikog‘a, axtachi, tarxon, shig‘ovul, sharbatdor, mubashshir, tug‘chi, miroxo‘r, rikobdor, dorug‘a, manjaniq va boshqalar), ularni qurollantirish, qo‘shinni boshqarish tartiblari to‘g‘risida Temuriylar davri harbiy san‘atiga daxldor ko‘plab ma‘lumotlar bilan tanishish mumkin.

Bobur 1494 yildan 1504 yilgacha Andijon va Samarqandda o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun muttasil kurash olib borgan bo‘lsada, uning bu harakatlari besamar ketdi.

U 1500 yil Samarqand taxtini egallab, saltanatni saqlab qolmoq uchun chor atrofga elchilar yuboradi va hech kimdan natija chiqmaganligini quyidagicha ta'riflaydi: "Har necha atrof va javonibqa elchilar va kishilar yiborildi. Hech kimdin ko'mak va madade yetishmadi. Ul mahaldakim, zo'r va quvatimiz bor edi, hech nav' shikast va nuqsone bo'lmaydur edi. Ko'mak va madad qilmadilar va mundoq mahalda xud ne hisob bilan madad qilg'aylar. Bularning umidi bila qabalda qal'adorliq qilmoq betaqrib ekandur" [1:84].

Bobur yosh bo'lishiga qaramasdan, atrofida gildardan madad kelmaydigan bo'lsa, Samarqand saltanatini saqlab qolmoq mushkul ekanligini tushunib yetadi. "Burung'ilar debturlarkim, qo'rg'on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki but kerak: bosh sardor bo'lg'ay. Ikki qo'l - ikki tarafdin kelur ko'mak va madad bo'lg'ay. Ikki oyoq - bu qo'rg'onning suyi bila zahirasi bo'lg'ay. Biz bu atrof javonibdag'ilardin ko'mak va madad ko'z tutarbiz, bular xud har qaysi bir o'zga xayolda" [1:84].

U 1511 yilda Safaviylar podshohi Ismoil Safaviy bilan o'zaro ittifoq tuzib, Samarqandni qayta egallashga muvaffaq bo'lsada, 1512 yil may oyida Buxoro atrofida jangda Shayboniyxon sulolasi vakili Ubaydullaxon tomonidan yengilib, bu safar ham Movarounnahrni tashlab chiqishga majbur bo'ladi.

Tazkirachi Hasanxoja Nisoriy Boburning o'n yillik harbiy harakatlari va ularning oxir - oqibatda natijasiz bo'lib chiqqani xususida "Muzakkiri ahbob" tazkirasida yozadi: "Bobur chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatiga ega bo'lib, uni saqlab qolishda xo'p sa'y - harakatlar va jonini ayamasdan jahdu - jadallar ko'rsatdi. Mardona to'qnashuvlar qildi, ammo taqdir o'qiga tadbir qalqoni dosh bera olmadi..."

U 1504 yilda hech bir jangu - jadalsiz Kobul taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi. Kobulni egallaganidan so'ng bu yerda mustaqil davlatchilikni rivojlantirish, ichki intizomni mustahkamlash, qo'shinni tartibga keltirish choralarini ko'radi, qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi.

1519 - 1526 yillarda Hindiston sari bir necha bor lashkar tortdi. 1525 yili Hindistonda hukmronlik qilayotgan afg'on sultoni Ibrohim Lo'diy ustiga qo'shin tortib, Panipat jangida uning ulkan qo'shini va qurollangan jangchilar boshqarayotgan fillariga zambaraklar orqali hujum uyushtirdi. Jangda Bobur mirzo lashkarlarining qo'li baland kelib, keng Hindiston hududi fath etiladi.

Bobur 1527 yilda Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan jangda Shimoliy Hindistonni to'liq zabt etib, "Boburiylar sulolasi"ga asos soladi.

U o'z harbiy yurishlari bilan Temurbek davrida jang san'ati bo'yicha erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamladi va unga ko'pgina yangiliklar olib kirdi. U jang qilishni san'at deb bilgan va "Harb ishi" nomli asarida harbiy san'atini har tomonlama yoritib bergan edi, taassufki, asar bizgacha yetib kelmagan.

Bobur mirzodagi yagona maqsad sari intilish, qat'iyat va jasorat namunalarini o'rganar ekansan, beixtiyor Amir Temur hazratlarining bitta tadbirkor inson minglab nouddaburondan ko'ra yaxshiroqdir, degan so'zlari yodga tushadi.

Bobur tarixning eng murakkab davrida umrguzaronlik qildi, u jozibador, dramatik siymolardan biri, qudratli saltanatning vorisi sifatida voyaga yetdi va so'nggi nafasigacha shu nomga munosibligicha qoldi. Bobur mirzo hayotining alg'ov - dalg'ov va tahlkali yillari uni dunyodagi eng munosib lashkarboshilar darajasiga olib chiqdi.

Umri mudom jangu - jadallarda, qo'li hamisha qilichda, ko'ngli tahlkada, siyosat girdobida o'tgan, taqdir bir umr beshafqat sinovlardan o'tkazgan bo'lsada,

bularning barchasini mardonavor yengdi va favqulodda nodir iste'dodi, beqiyos insoniy salohiyati bilan haqli ravishda jahon ahlining ehtiromiga sazovor bo'ldi.

Bobur mirzo diniy fazilatlariga oliy ne'mat sifatida qaragan, tabiatan adolatli va saxovatpesha inson bo'lgan. "Boburnoma"ni o'qir ekansiz, Boburning otasi sulton Umarshayx mirzo ham tabiatan nihoyatda adolatli va saxovatpesha inson bo'lganligining guvohi bo'lasiz. Bobur endigina Samarqand taxtini egallaganida kelajakka umidvorlik bilan, qalbida jo'sh urgan xayru - saxovatini quyidagi ruboiysida keltiradi:

"Ishlar bori ko'ngulungdag'idek bo'lg'usidir,
In'omu vazifa boru buyrulg'usidur.
Ul g'allau muhmalki deb erding, berdim,
Muhmalg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur" [1:84].

Bobur mirzoning Kobulda turganida "Men mol yig'uvchi layim emasman", deb zorlanganida jon bor edi. Ulug' qalb egasini mol yig'ish tashvishi emas, balki uning saltanat barpo etishdan asosiy maqsadi xalq xizmati, ezgu - amallarni ado etish, islom dini qadriyatlarini avaylab - asrash, adolatni o'rnatish va xayr - saxovatni amalga oshirishdan iborat bo'lgan. U bek va navkarlarini har tomonlama moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab - quvatlagan, mehnat ila ranj chekkanlarni qadr - qimmatini oshirib, ularni ehson, in'om va hadyalar bilan rag'batlantirishni saltanatni mustahkamlashning muhim dastaklaridan biri deb bilgan.

"Boburnoma" asarida Kobulda olib borilgan obodonchilik ishlari quyidagicha keltirgan: "Chashmaning chor hadi arg'uvonzorga mushrif, arg'uvon guli ochilg'on mahalda muncha yer ma'lum emaskim, olamda bo'lg'ay. Sariq arg'uvoni ham bisyor bo'lur. Sariq arg'uvon bila qizil arg'uvon domanada darham ochilur. ...Sufaning girdida tamom tol daraxtlari ekildi. Xeyli yaxshi manzil bo'ldi. Bu sufadin yuqqoriroq pushtaning yonida uzum bog'i soldurdim" [1:125].

Bobur mirzo Kobulda fohif sifatida emas, shu yurtni obod qilish niyatida kelgan tadbirkor hukmdor sifatida faoliyat yuritadi, mamlakat manfaatlari yo'lida qizg'in ish olib borib, uning nufuzini ancha mustahkamlashga erishadi.

Bobur Hindistonda ulkan saltanatni qo'lga kiritganidan so'ng umri jangu - jadallar ichida kechayotgan bo'lsada, Temuriylarga xos bunyodkorlik ishlarini boshlab yubordi: ariq - kanallar qazdirdi, bog' - rog'lar bunyod etdi, muhtasham imoratlar tikladi.

Bobur mirzo Hindistondek ulkan saltanatni zabt etgan bo'lsada, u bu yerga istilochi sifatida emas, balki tadbirkor podshoh va islohotchi shaxs sifatida ish yuritadi. Bobur mirzo Hindistonda olib borilayotgan qurilish va obodonchilik ishlarini Amir Temur qilgan ishlarga taqqoslab, ko'ngli faxr va g'ururga to'ladi. Ulug' bobokaloni ishining davomchisi sifatida shu o'lkada amalga oshirayotgan ishlarning ayrim tafsilotlarini quyidagicha bayon etadi: "Yana bir latofati budurkim, har sinfdin va har hifagardin behad va benihoyat ko'ptur. Har ish uchun va har nima uchun jami muqarrar va muayayndurkim, ota - otalaridin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar.

Nechukkim, "Zafarnoma"da Temurbekning masjidi sangin imoratini qilurda ...Ozarbayjon va Fors va Hinduston va yana o'zga mamolik sangtaroshlaridin har kunda ikki yuz kishi masjidida ish qilurlar edi. Bir Ograda ushbu Ograning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sekson kishi ish qilurlar

edi. Yana Ograda va Sekrida va Biyonada va Dulpurda va Gulavyorda va Ko'lda ming to'rt yuz to'qson bir sangtarosh har kunda mening imoratimda ish qilurlar edi. Har hirfagar va har korigardın ushbu qiyos bila Hindustonda behad va benihoyatdur" [1:268].

"Boburnoma"da Agra shahri atroflarini obodonlashtirish ishlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Andoq besafo va xarob yerlar edikim, yuz karohat va noxushluq bila andin ubur ettuk. Bu yerning makruhlig'i va noxushlig'idin chorbog' xayoli xotirdin chiqti. Mundin o'zga mudoq yovuq yer Ograda chun yo'q edi, necha kundin so'ng zarur bo'lub, bu yerga o'q ilik quyuldi. Ul ulug' chohkim, hammom suvi andindur, bunyod bo'ldi. Yana bu parcha yerkim, ambuli daraxtlari va musamman havz andadur, bulardin so'ng ulug' havz va sahne bo'ldi. Andin so'ng tosh imorat olidag'i havz va tolur bo'ldi. Andin so'ng "Xilvatxona" bog'chasi va uylari bo'ldi. Andin so'ng hammom bo'ldi. Mudoq besafo va besiyog Hindta tavr tarrohliqlar va siyoqliq bog'chalar paydo bo'ldi. Har go'shada maqbul chamanlar, har chamanda muvajjah gul va nastaranlar murattab va mukammal bo'ldi" ("Boburnoma", 275 - bet).

Hindiston ob - havosi dehqonchilik qilishda Movarounnahr hududidan tubdan farq qilsa ham, bu yerda turli ekinlarni sinab ko'rish va yetishtirish ishlariga Bobur alohida e'tibor qaratadi: "Balxiy polizkorni qovun ekkali qo'yulub edi. Bir necha qovun saqlag'on ekandur, kelturdi. Xeyli yaxshig'ina qovunlar edi. Bir - ikki buta tok "Hasht behisht" bog'ida ekturub edim, aning ham yaxshig'ina uzumlari bo'lub edi. Shayx Go'ran ham bir sabad uzum yiborib edi, yamon emas edi. Hindistonda qovun, uzumning muncha bo'luridin filjumla xursandlig'e bo'ldi" [1:347].

Asarda Kobulni egallaganidan so'ng hududlarni birinchi navbatda o'z og'a - inilari, temuriyzodalar, Andijondan kelgan o'z bek va navkarlariga emas, balki yangidan yollangan va chetdan kelgan beklarga bo'lib berganini alohida ko'rsatadi: "Kobul viloyatini mirzolariga va tamom mehmon beklarga - o'q taqsim qilildi. O'zum bila qazoqliqlarda bila bo'lib kelgan beklarga va yigitlarga ba'zisiga kent va yatuldek berildi. Yolg'iz bu emas, har qachonkim, tengri taolo davlate berdi, mehmon va g'arib beklarni va yigitlarni boyrildin va Andijoniyildin ortuqroq va yaxshiroq ko'rdu. Bovujud ajab baloedurkim, hamisha el meni g'iybat qilurlarkim, boyiridin va Andijoniydin o'zgani rioyat qilmas [1:131].

Boburning adolatpeshaligi to'g'risida asarda quyidagi epizod bor: "Bu yurttin ko'chub, Qorabog' yonidag'i Oqsaroy o'langiga tushuldi. Xisravshohning eli - kuni zulm va besarliqqa o'rgangan el, elga zulm qila boshladilar. Oxir Seydim Ali darbonning bir o'bdon navkari birovning bir ko'za yog'ini tortib olg'an uchun eshikka kelturub tayoqlattim... El bu siyosattin tamom bosildilar" [1:114].

Shuningdek, asarda Yom navohisida ekan chog'ida navkarlari tomonidan aholidan zo'rlik bilan talab olingan mol - mulkni tongga qadar ega - egasiga qaytarib berishlarini qat'iy talab qiladi. Ertasigayoq navkarlar tortib olingan nina sinig'iyu ip uchigacha qolmasdan barchasini elga qaytarib beradilar. Bobur mirzo navkarlarini xalqning mol - mulkini asossiz tortib olgani uchun qattiq jazolab, tartib o'rnatgani uning adolatparvarligining yaqqol dalilidir.

Bobur mirzo Kobulda hukmronlik qilgan davrda temuriylar avlodi vakillari uning huzuriga kelishganida qarindosh - urug'lariga, yaqinlariga nisbatan katta himmat ko'rsatadi. Ularning xizmatlarini ado etishni o'zining burchi deb bilib, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlaydi: "Zamona nohamvorlig'idin va davron nosozkorlig'idin va taxt va mulk va navkar va savdardin ayrilib... ul tabaqadin har kimki mening sarvaqting'a tushti, iligimdin kelgancha tuqqonliqni va yaxshiliqni bajo

kelturdim, nechukkim Shohbegim (xon dodasining onasi) keldilar, Pamg'onnim, Kobulning a'lo yerlaridindur, berdim. Yana har nav' farzandliq va xizmatgorliqta taqsire qilmadim" [1:180].

"Sulton Husayn mirzoning qizi Muhammad mirzoning onasi Sultonim begimkim, bu fataratlarda Xorazmg'a tushub edi. Kobulg'a keldilar. Alar o'lturg'ali Bog'i Xilvat ta'yin bo'ldi. Ul bog'da tushkandin so'ng men borib ko'rdim. Chun egachi edilar, ta'zim va ehtiromlari jihatidin yukundim, alar ham yukundilar, yurub oraga ko'rushuldi. So'ngralar doim bu qoidani mar'iy tuturlar edi" [1:214].

Shayboniyxon Qoshqarni egallaganidan so'ng, u yerning hukmdori sulton Saidxon (xon dodasi avlodi) qochib Kobulga, Bobur mirzo oldiga panoh izlab keladi. Shu orada Andijondan Bobur mirzoga taxtni egallashini so'rab elchilar kelganida, Bobur unga bor navkarlarini qo'shib berib, Andijon taxtiga xon qilib yuboradi.

Bobur Kobul va Hindiston oralig'idagi bir necha viloyatlar hududidagi xalqlarning tinchligini buzmaslik maqsadida, garchand ular hozirda Kobul saltanatiga bo'ysunmagan bo'lsada, bu hududlar ko'pdan Temuriylar saltanatiga bo'ysunib kelganini inobatga olib, farmon berib navkar va lashkarini ularni talamasliklarini belgilab qo'ygan edi. Temurbek Hindistonni egallaganidan so'ng bu hududlar Shohruh mirzoga tegishli bo'lgan, keyingi davrlarda uning nabirasi Suyurg'itmish mirzo va o'g'illari tasarrufida bo'lgan edi: "Bir necha viloyatlarkim, ...necha mahal turk tasarrufida edi, bularni xud mulkimizdek tasavvur qilur eduk. Bu jihattin bu tog' eli bila yaxshi maosh qilmoq vojib va lozim edi. Farmon bo'ldikim, hech kim bularning gala - qararlarig'a, balki ip uchi, igna sinug'lariga atrof va navohida zarar va nuqson yetkurmasun. ...zinhor dag'dag'a o'zlarig'a yo'l berib, elni buzulg'ali qo'ymasunlarkim, bu viloyat va el bila yoqimiz bordur, talon va toroj bo'lmag'usidur" [1:204,205].

Bobur mirzo Hindistonga lashkar tortgan mahalda yo'lda hind savdogarlari uchrab qolganida lashkarlar Bobur mirzoga murojaat etib, begona yurt savdogarlarining mol - mulkini tortib olishga ruxsat so'raydilar, shunda Bobur mirzo savdogarlarning gunohi yo'qligini, ularning mol - mulkini talamaslik, omonatga xiyonat qilmaslikni buyuradi: "Qalotg'a yetganda qalin Hinduston savdogarikim, Qalotta savdo qilg'ali kelgan ekandurlar, qocha olmadilar, cherik eli alar ustig'a - o'q yetib bordi. Aksar barin bo'ldilarkim, mundoq yog'iyliq mahalda yog'iy viloyatig'a keladurganni talamoq kerak, men rizo bo'lmadim. Dedimkim, savdogarning ne gunohi bor" [1:187].

Bobur "Boburnoma"da ibrat olgulik misollarni qayd etar ekan, ular hammasi haqiqat ekani, bu gaplar o'zini ta'rif etish uchun bitilmaganini bildiradi: "Bu bitilganlardan g'araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etubturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota - og'adin har yaxshiliq va yamonlig'kim shoe edi, taqrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hurarkim bayoni voqe edi, tahrir ayladim" [1:180].

Boburning o'z yurtiga muhabbati o'z avlodlariga bo'lgan mehriga, ularga ko'rsatgan rahnamoligiga ko'chgan bo'lsa ehtimol. U hamisha qarindosh - urug'lariga rahnamolik qilishga, ularning hurmatini joyiga qo'yishga va har tomonlama qo'llab - quvvatlashga harakat qildi.

"Boburnoma"da Bobur mirzoning har qadamda o'z lashkar va navkarlarini, beklari va o'g'illarini muntazam ravishda har bir qilgan ibratli ishi uchun ulug'lab

hadya, in'om va sovg'alar berganini kuzatish mumkin. Hatto shunday paytlar bo'lganki, u o'zi kiyib yurgan to'ni va kamarini tortiq qilib yuborgan. Bu ulug' hukmdorning bag'rikengligi va saxovatidan dalolatdir.

Hindistonni egallaganidan keyin janglarda jasorat ko'rsatgan beklari va sipohilariga, qo'shni davlatlarning hukmdorlariga in'omlar yuboradi: "Ul yuzdagi beklarga va sipohilarga qalin in'omlar bordi. Samarqand va Xuroson va Qoshg'ar va Iroqqa urug' - qayosh uchun savg'otlar yiborildi. Samarqand va Xurosondagi mashoyig'a nuzur (nazr - muallif) bordi. Makka va Madinaga ham nazr bordi" [1:270].

Bobur mamlakat kuch - qudratini mustahkamlashda ishtirok etgan sipohilar, saroy a'yonlari va beklarini, qurilish va obodonchilik ishlarida band bo'lganlarni mehnat va ranjini inobatga olib, ularni taqdirlash tadbirlarini tantanavorlik ruhida o'tkazib borgan, ularga to'y va ma'arakalarda qimmatbaho tortiq va inoyatlar qilgan. Ayniqsa, turli mamlakatlardan kelgan elchilar bilan o'zaro qo'shniylik aloqalarini mustahkamlash maqsadida inoyatlar qilib, ularning hurmatini joyiga qo'yishga harakat qilgan.

Hatto umrining oxirida to'ng'ich farzandi Muhammad Humoyun kasallanib, uning da'vo topmog'iga tabiblar qimmatbaho narsani ehson qilmoq lozim topadi: "Muhammad Humoyun olti oygacha Badaxshonda edi: zohiran, ani yer va suyi xush yoqmadi. ...tabiblar har necha doru - darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarga darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglimga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsin. Xoja xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar, siz bu so'zi nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi, Muhammad Humoyunga inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning ivaziga nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'lubdur... Va andin o'tubturkim, men aning betoqatligini toqat kelturg'aymen. O'shal holatta kirib, uch qatla boshidin o'grulub, dedimkim, men ko'tardim, harne darding bor. O'shal zamon men og'ur bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub ko'pti. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yon davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lga berib, joynishinig'ig'a va valiahdligiga nasb qildim. Va taxtni anga topshurdim" [1:355].

Bu yerda Bobur mirzoning beqiyos saxovatini, farzandining sog'ligini tiklashga umidvor bo'lib, ulug' saltanatning kelajagi yo'lida jonini fido qilishga tayyor ekanligini ko'rish mumkin. Bu mardlik va saxovat ko'p zamonlardan beri yuksak o'rnak namunasi sifatida bot - bot eslanadi. Bobur mirzo tirikligida o'z taxtni farzandi arjumandi Humoyun mirzoga vasiyat qilganining tagida juda katta aql va farosat, asrlar silsilasidan o'tgan tajriba mujassam ekanligini sezish qiyin emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Bobur mirzo nazdida o'z qo'l ostidagilarning mehnatu ranjini qadrlash, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlab, taqdirlab borish, hukmdor sifatida xayru - saxovatli bo'lish davlat boshqaruvining muhim omillaridan biri sifatida qaralgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". Toshkent. Fan nashriyoti – 2019-yil.

2. Arminiy Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi". Toshkent - 2024-yil.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, Sharq – 1998-yil.
4. Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi". Toshkent – 2024-yil.
5. Alisher Navoiy "Xamsa". Toshkent – 2019-yil.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent – 2005-yil.
7. M. Oybek "Navoiy gulshani". Toshkent – 1967-yil.
8. I. Sulton "Navoiyning qalb daftari". Toshkent – 1969-yil.
9. A. Rustamov "Navoiyning badiiy mahorati". Toshkent -1979-yil.
10. S. G'anieva Alisher Navoiy. Toshkent – 1968-yil.
11. I. Haqqulov "Tasavvuf va she'riyat". Toshkent – 1991-yil.